

“O‘zmilliybank” AJ Yangi-Nishon BXOda o‘tkazilgan davra suhbat

Yangi-Nishon sh

25.03.2026-yil.

Kun tartibi:

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2025 yildagi PF-270-sonli
Farmoni**

**O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish
tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida**

Bugungi kunda davlat va jamiyatni tashvishga solayotgan eng global muammolardan biri - korrupsiya balosidir. Mamlakatimizda ushbu illatga qarshi kurashish masalasiga umumdavlat miqyosidagi vazifa sifatida qaralib, uning oldini olish va kelib chiqish sabablarini o‘rganish maqsadida muntazam ishlar olib borilib, chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan, “O‘zmilliybank” AJ Qashqadaryo viloyat Bosh boshqarmasi faoliyatida qonuniyligni ta‘minlash jarayonidagi asosiy vazifalardan biri ham aynan korrupsiya bilan bog‘liq holatning oldini olish, unga yo‘l qo‘ymaslik hamda bunday salbiy illatga qarshi samarali kurash olib borishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2025 yildagi PF-270-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni yuzasidan davra suhbatlari otkazildi.

Davra suhbatida “O‘zmilliybank” AJ Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi I.Eshmurodov so‘zga chiqib, bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga chek qo‘yish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham kelgisidagi vazifalar to‘g‘risida so‘z yuritib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2025 yildagi PF-270-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni mohiyati xaqida ya‘ni, Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini izchil davom ettirish, mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi pozitsiyasini yanada yaxshilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, quyidagilar;

(a) davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari)da korrupsiyaga qarshi kurashishning professional va samarali tizimini tashkil etish;

(b) korrupsiya oqibatlari bilan kurashishdan ko‘ra korrupsiyaviy omillarni barvaqt aniqlash va preventiv mexanizmlarni joriy etish orqali tizimli korrupsiyaviy holatlarni oldini olish;

(v) raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellektni joriy qilishni hamda ulardan samarali foydalanishni kengaytirish;

(g) davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish va muntazam takomillashtirib borish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning 2030-yilgacha bo'lgan ustuvor yo'nalishlari etib belgilab olinganini bayon qildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan, Yangi-Nishon BXO mudiri Z.Muzaffarov so'zga chiqib Yangi-Nishon BXOda noqonuniy operatsiyalar bajarilishi, bank va mijozlarning mablag'larini o'zlashtirish xatarini oldini olish, xodimlar tomonidan "O'zmilliybank" AJ ichki tartib qoidalarini buzilishini oldini olish hamda bank xodimi ish etikasi va odob-axloq kodekslariga rioya qilinishini kuchaytirish maqsadida xodimlar tomonidan firibgarlik, korrupsiya, ta'magirlik, mansab vakolatlarini suiste'mol qilish va boshqa salbiy holatlar sodir etilmasligi, ushbu salbiy holatlarning oldini olish yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilib, korrupsiyaga qarshi kurashishning bir necha prinsiplari mavjudligi ya'ni, qonuniylik, fuqarolar xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ekanligi bank xodimlariga yetkazildi.

PF-270-sonli Farmonga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi hamda "O'zmilliybank" AJning chora-tadbirlar Rejasi bo'yicha ma'ruzada, keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-xuquqiy islohotlar amalga oshirilganligi, aholining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yunaltirilgan tizimli choralar ko'rilganligi aytib utildi.

PF-270-sonli Farmoniga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi hamda "O'zmilliybank" AJning chora-tadbirlar Rejasi bo'yicha aholining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida, O'zmilliybank AJ xodimlari o'rtasida targ'ibot va tashviqot tushuntirish ishlari olib borilib hozirgi kunda bankka kelayotgan har bir mijozlarga xodimlar tomonidan xushmuomala munosabatda bo'lishlik, qonun buzilishiga yo'l qo'ymaslik, mijozlarni sarsongarchiligiga chek qo'yish, mijozlardan qabul qilinayotgan hujjatlar yuzasidan tamagirlikka yo'l qo'ymaslik, mijozlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tushuntirishlar berilib ushbu soha bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Yig'ilish ishtirokchilariga Korrupsiyani to'riga tushib qolmaslik, korrupsiya bilan shug'ullanmaslik, Korrupsiyaga belgilagan jazo muqarrarligi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalari bo'yicha keng tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, har bir bank xodimiga bank xodimining kasb odob-axloqi, ichki mehnat tartibi va o'z xizmat vazifalariga vijdonan yondoshishi, sodir etilgan jinoyat

jazosiz qolmasligi, shu kabi qonunbuzarliklar, hamda xato kamchiliklarni kelib chiqishining sabablari, ularni bartaraf etish va kelgusida kamchiliklarga yo'l qo'ymasliklari, shaxsiy elektron manzillariga Bosh ofis tomonidan jo'natilayotgan har bir Korrupsiyaga qarshi kurashi yo'nalishidagi o'quv-mashg'ulot darsliklari bilan muntazam ravishda tanishib, bilim va ko'nikmalarini oshirib borishlari lozimligi aytib o'tildi.

Yig'ilish qatnashchilari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarni berib, yetarlicha javoblar olishdi.

13 TA

Yangi-Nishon BXO mudiri:

Z.Muzaffarov



Keyfiyat Boshqaruvi

Tangriyev Jahongir

Horganov Moqim

Abdinazarov Zaribjon

Muxommedov Zaxar

Bozhanov Umar

Chiragov Yulduz

Muxommedov Maxsum

Bobilov B. I.

Dunpakev S. I.

Maksumov X.

42

[Signature]

Saxat

[Signature]

[Signature]

B

[Signature]

[Signature]

[Signature]

[Signature]

